

TOSHKENT VILOYATI SHAROITIDA CHAKANDA (HIPPOPHAE) PLANTATSIYALARINI KO‘PAYTIRISH

Oqqo‘ziyev I.O‘., Xoliqov A.N., Turobov F.B., Yusupov U.M.
O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Annatsiya: Maqolada dorivor o‘simlik chakandaning biomorfologik, sistematik tahlili, tibbiyot va xalq tabobatlaridagi o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Urug‘, go‘ng, torf, karotin.

Аннотация: В статье приводятся сведения о биоморфологическом систематическом анализе лекарственных трав, их месте в медицине и народной медицине.

Ключевые слова: семя, рень, торф, каротин.

Annotation: The article provides information on the biomorphological, systematic analysis of medicinal herbs, their place in medicine and folk medicine.

Keywords: seed, fertilizer, peat, carotene.

Insonning kundalik xayotida foydalaniladigan rezavor mevali o‘simliklar assortimentini boyitish uchun yovvoyi tabiatdan yangi istiqbolli o‘simliklarni madaniylashtirish aholini shifobaxsh oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va kasalliklarni profilaktikasi bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarni hal etishga zamin yaratadi. Mevali madaniy o‘simliklar mevasi tarkibi inson organizmi tomonidan oson o‘zlashtiriluvchi qandlar shakarlar va organik kislotalarga bo‘ydir. Mevalarda ayniqsa vitaminlar, oqsillar, moylar, xo‘shbuy moddalar, pektin va oshlovchi moddalar hamda modda almashinuvida muhim bo‘lgan mineral tuzlar mavjuddir. Hozirgi foydalanilayotgan ko‘pgina mevali madaniy o‘simliklar ko‘p asrlik xalqning ilmiy seleksiya mahsuli hisoblanadi, ular mazasi, hosildorligi hamda boshqa qimmatli xo‘jalik-biologik belgilari bo‘yicha tanlash usulida yaratilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasining florasidagi biologik xilma-xillik yangi mevali o‘simliklarni tanlash va seleksiyasini o‘tkazishning o‘ziga xos boy genetik manbasi hisoblanadi. Bizning mintaqamizdagi istiqbolli rezavor mevali o‘simliklar toifasiga jumrutsimon chakandani xam kiritish mumkin. Chakandaning yovvoyi polimorf shakllari O‘zbekiston xududidagi ko‘pgina daryolarning yuqori xavzalarida tabiiy holda tarqalgan. Keyingi 50 yillik davrda butun dunyoda jumrutsimon chakandaning tabiiy populyatsiyalaridan tanlab olingan istiqbolli shakllari asosida 50 dan ortiq navlari yaratilgan.

Yer sharidagi tuproq-iqlim sharoitlarining turli-tumanligi tufayli boshqa mintaqalarda yaratilgan navlar bizning o‘simlik o‘shish sharoitlari og‘ir va quruq-issiq iqlimli mintaqamizga tez moslasha olmaydi. Shuning uchun Respublikamizdagi mahalliy chakanda populyatsiyasi asosida uning bog‘larini yaratishimiz zarur. Buning uchun uning tabiiy populyatsiyalaridan istiqbolli shakllarni tanlash va ularni seleksiya obyekti sifatida o‘rganishimiz, yangi navlarini yaratishimiz zarur [2]. O‘zbekistonda chakanda keng tarqalgan bo‘lsada, bir-biridan uzilib qolgan arealiga ega. Uning asosiy tarqalish joylari Pomir-Oloy va Tyan-Shan tog‘ tizimidagi daryolar havzalari (Chirchiq daryosi vodiysi) hisoblanadi.

Tabiiy chakandazorlar tuproq namligi yetarli bo‘lgan yerlarda tarqalgan. Lekin chakanda arealining iqlimi keskin kontinental bo‘lgan mintaqalarda namlik yetarli bo‘lgan hollarda havoning yuqori darajada quruqligi ham qayd etiladi. Ba’zi xolatlarda, chakanda daryo xavzalarida bahorgi suv toshqinlaridan so‘ng yozda muzliklarni erishi natijasida yuzaga keluvchi yozgi suv toshishi sharoitlarida ham yaxshi o‘shishga moslashgan.

Bu jarayon yozda tog'lardagi qor-muzliklarini intensiv erishi oqibatida daryo suvining toshishi havzaning vodiy qismida yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning natijasida daryo havzasining daryo o'zaniga yaqin yerlardagi o'simlik dunyosi tez oquvchi toshqin suvlar ostida 10-15 kundan 100-120 kungacha qolib ketadi. Bunday anaerobioz sharoitlarida uzoq suv bosilishiga chidamli o'simliklarga yashab qoladilar. Shuning uchun chakanda doimo boshqa o'simliklar o'sa olmaydigan shunday og'ir sharoitli yerlarni birinchilardan bo'lib egallaydi va o'sa boshlaydi.

Chakanda urug' ko'chatlari va ildiz bachkilari yorug'sevarligidan o'to'simliklarga nisbatan kam raqobatdosh, shu sababli qalin o'to'simliklar bilan qoplangan balandroq yerlarda o'smaydi. Ushbu o'simlik butazorlarini daryo havzasida taqsimlanishi u erda allyuvial jarayonlarning kechishi va daryo toshqini davrida suv bosilishining davomiyligiga bog'liqdir [1].

Butazorlar asosan daryo o'zaniga yaqin joylardagi qumli-shag'alli va allyuvial yotqiziqli substratlarda uchraydi. O'zbekiston sharoitlarida chakanda daryo havzasining namlik yetarli va yer ostki suvlari yaqin qumoq-shag'alli allyuvial yotqiziqli yerlarda o'sadi. Bunday namlik bilan yaxshi ta'minlangan ochiq yerlarda chakanda vegetativ ko'payishga (ildiz bachkilari yordamida) moyilligi tufayli qisqa vaqt mobaynida katta maydonlarda o'tib bo'lmas qalin butazorlarni shakllantiradi. Bu kabi toza chakandadan iborat qalin chakandazorlar tadqiq etilayotgan ko'plab daryolarning to'qay qismida – daryo bo'yi o'rmonlarida ko'plab uchratish mumkin [2]

Ayniqsa, daryo o'zanida bahorgi toshqinlar yoki daryo o'zanini o'zgarishi oqibatida paydo bo'lgan orollarda chakanda birinchilardan bo'lib o'sa boshlaydi. Ildiz tizimi me'yoridan ortiq namlikka chidamli, uzoq suv bosilishidan zararlanmaydi. Shu sababli ham chakanda asosan boshqa daraxt-butalardan xoli bo'lgan tog' daryolari o'zani atrofida ko'proq o'sishga moslashgan. Bunday qumoq-shag'alli yerlar yer ostki suvlarini tuproq yuzasiga yaqinligi bilan ham xarakterlidir.

Chakanda yengil strukturali, havo almashinuvi yaxshi, unumdor va fosfarga boy tuproqlarda yaxshi o'sadi va hosildor bo'ladi. Aksincha zich, loyli va namlik darajasi past tuproqlarda hamda turg'un suvli botqoqlangan yerlarda o'sa olmaydi.

Chakanda qadimdan xalq tabobatida ko'pgina kasalliklarni davolashda foydalanib kelingan. Mevasi va barglari tibet tabobatida o'pkada qon oqishini to'xtatishda shirin preparatlar sifatida foydalanilgan. Chakanda tanasi yog'ochining o'zagi qonning quyushuvini oshirish uchun, ko'kyo'tal og'riqlarini va isitmani kamaytirish uchun, kuli – ingichka ichakdagi og'riqlarni kamaytirish uchun ishlatilgan. Xalq tabobatida mevalari va bargi oshqozon va revmatizm kasalliklarini davolashda qo'llanilgan [4].

Chakanda muhim o'rmon xo'jaligi ahamiyatiga ega. Bu o'simlik kuchli namoyon bo'lgan ona o'simlik atrofida ildiz bachkilari yordamida yosh o'simliklar paydo qilish va yangi yerlarni shu tarzda egallash xususiyatiga egadir. Uning bu biologik xususiyatidan tuproq eroziyasiga qarshi kurashishda va tog'-kon sanoatida tanazzulga yuz tutgan yerlarni rekultivatsiya qilishda unumli foydalanish mumkin.

Chakandani lansetsimon shakldagi va kumushsimon, zaytunsimon tusli barglari tufayli manzarali o'simlik sifatida va jonli devor sifatida ko'kalamzorlashtirishda foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Ibragimov A.J. Surxon davlat qo'riqxonasining florasi (ko'hitang tizmasi). Biol. fan. diss. avtoref. –Toshkent: O'zR FA. 2010.-22 b.
2. Murdaxaev Yu. M. O'zbekistonda vatan topgan dorivor o'simliklar. – Toshkent: Fan, 1990. –76
3. Nabiev M.M. Botanika atlas-lug'ati (O'zbekiston o'simliklari ilmiy va mahalliy nomlarining illyustratsion lug'ati). Toshkent, O'zbekiston SSR. "Fan" nashriyoti. 1969 y. – 254 b.
4. Axmedov E.T. Xalq tabobati va rasmiy tibbiyot dorivor o'simliklari. O'quv-uslubiy majmua. 2016. -215 b.